


Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-dekabr)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 5560,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 107,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (90,9 %) ni tashkil etdi.



B– Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**–Ishlab chiqaradigan sanoat **D**–Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, **E**–Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da



Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmining ko'payishiga asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 7,1 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 6,9 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 37,9 % ga o'sishi kuzatildi. Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 1,6 % ga pasayishi kuzatildi.


*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati mahsulotlarining hajmi mlrd. so'mda va fizik hajmi indeksi, % da



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 137,2 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,5 % ini tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi yil boshidan X-XI-XII oylar, % da



Tumanlar miqyosida, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so'mda

Tumanlar nomi	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	FHI, %
G'allaorol tumani	20 886,7	35 800,2	85,5
Forish tumani	16 298,9	38 568,9	205,1
Sharof Rashidov tumani	30 211,8	25 942,3	74,4
Zomin tumani	41 236,0	18 156,6	38,2
Jizzax shahri	6 331,0	8 406,8	115,1
Zafarobod tumani	1 659,9	7 412,6	387,0

Ishlab chiqaradigan sanoat




2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5056,5 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 90,9 % ini tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Yuqori texnologiyali



O'rta-yuqori texnologiyali



O'rta-quyi texnologiyali	quyi texnologiyali
<p>Ulushi % da</p> <p>22,5 2019- y.</p> <p>19,7 2020- y.</p>	<p>Ulushi % da</p> <p>61,2 2019- y.</p> <p>63,0 2020- y.</p>


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 3,8 % ni (2019- yilning yanvar-dekabr oylarida - 2,9 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 4,5 % (5,0 %), o'rta-quyi texnologiyali - 19,7 % (22,5 %) va quyi texnologiyalisi - 63,0 % (61,2 %) ni tashkil etdi.

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 9,6 % (2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 120,6 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 2,5 % (2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 73,8 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 32,6 % (2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 113,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 19,5 % (2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,8 % (2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 77,8 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

2020- yilning yanvar-dekabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 65,3 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 10,8 % ga), ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	58 965,0	65 320,0	6355,0
Paxta tolasi, t.	32 268,0	24 482,0	- 7786,0
O'simlik yog'i (tozalangan), t.	9 286,1	6 728,7	-2557,4
Paxta linti, t.	2 775,0	2 182,0	- 593
Trikotaj polotnolar, t.	2 259,0	2 058,0	-201

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash


2020- yilning yanvar-dekabr oylarida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 309,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (5,6 % ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

yil boshidan X-XI-XII oylar, % da




2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,9 % ga oshganligi kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	230 452,3	309 916,3	79464,0
Boshqa bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming gkal	153,0	9,5	-143,5
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	54 804,1	70 230,9	15426,8


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 56,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

yil boshidan X-XI-XII oylar, % da




Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	20 910,4	37 448,5	16 538,1
Kanalizatsiya tizimi bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	41,1	42,0	0,9
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	17 099,3	18 891,0	1 791,7

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 60,8 % ga oshganlik kuzatildi, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 1,5 %

ga, hamda kanalizatsiya tizimi bo'yicha xizmatlar 28,4 % ga pasayishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2591,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 6,7 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 46,6 % ni tashkil etdi.

















Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 33,4 % ni, shuningdek, Sharof Rashidov tumani 10,3 % ni, Zomin tumani 8,7 % ni hamda Do'stlik tumani 9,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, viloyatda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Zafarobod tumani (314,1 %), Yangiobod (182,5 %) va Arnasoy (137,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati















(2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	2591,7	100,0	106,7		224,4	8,7	100,3
Jizzax viloyati				Zomin			
	866,5	33,4	94,8		113,0	4,4	108,2
Jizzax shahar				Zarbdor			
	101,5	3,9	137,9		193,7	7,5	314,1
Arnasoy				Zafarobod			
	85,7	3,3	108,2		74,9	2,9	122,7
Baxmal				Mirzacho'l			
	114,2	4,4	104,9		125,8	4,9	109,3
G'allaorol				Paxtakor			
	266,8	10,3	108,1		90,1	3,5	76,2
Sharof Rashidov				Forish			
	235,6	9,1	88,1		99,5	3,7	182,5
Do'stlik				Yangiobod			

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 23,3 % ni, shuningdek, Zarbdor tumani 9,1 % ni, Do'stlik tumani 19,0 % ni, Zomin tumani 8,1 % ni hamda Paxtakor tumani 7,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahar (164,3 %) hamda Baxmal tumanida (133,1 %) qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)















	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	883,1	100,0	107,1		71,1	8,1	61,1
Jizzax viloyati				Zomin			
	205,8	23,3	164,3		80,0	9,1	89,3
Jizzax shahar				Zarbdor			
	34,3	3,9	130,4		36,6	4,1	116,8
Arnasoy				Zafarobod			
	49,0	5,5	133,1		21,3	2,4	76,9
Baxmal				Mirzacho'l			
	47,7	5,4	132,2		68,8	7,8	91,9
G'allaorol				Paxtakor			
	38,1	4,3	93,8		38,0	4,3	103,2
Sharof Rashidov				Forish			
	167,7	19,0	104,8		24,7	2,8	108,6
Do'stlik				Yangiobod			

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 38,7 % ni, shuningdek, Sharof Rashidov tumani 13,4 % ni, Zafarobod tumani 9,2 % ni, Zomin tumani 9,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Zafarobod tumaniga to'g'ri

kelib, 517,7 % ni, Mirzacho'l tumani (160,6 %), Yangiobod tumani (235,5 %) hamda Zarbdor tumanida (222,3 %) qayd etildi.



Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida

	<i>Mlrd. so'm</i> 1708,6	<i>Ulushi % da</i> 100,0	<i>O'sishi % da</i> 106,5		<i>Mlrd. so'm</i> 153,3	<i>Ulushi % da</i> 9,0	<i>O'sishi % da</i> 142,8
Jizzax viloyati				Zomin			
	<i>Mlrd. so'm</i> 660,7	<i>Ulushi % da</i> 38,7	<i>O'sishi % da</i> 83,7		<i>Mlrd. so'm</i> 33,0	<i>Ulushi % da</i> 1,9	<i>O'sishi % da</i> 222,3
Jizzax shahar				Zarbdor			
	<i>Mlrd. so'm</i> 67,3	<i>Ulushi % da</i> 3,9	<i>O'sishi % da</i> 142,0		<i>Mlrd. so'm</i> 157,1	<i>Ulushi % da</i> 9,2	<i>O'sishi % da</i> 517,7
Arnasoy				Zafarobod			
	<i>Mlrd. so'm</i> 36,7	<i>Ulushi % da</i> 2,1	<i>O'sishi % da</i> 86,7		<i>Mlrd. so'm</i> 53,6	<i>Ulushi % da</i> 3,1	<i>O'sishi % da</i> 160,6
Baxmal				Mirzacho'l			
	<i>Mlrd. so'm</i> 66,6	<i>Ulushi % da</i> 3,9	<i>O'sishi % da</i> 91,4		<i>Mlrd. so'm</i> 56,9	<i>Ulushi % da</i> 3,3	<i>O'sishi % da</i> 141,8
G'allaorol				Paxtakor			
	<i>Mlrd. so'm</i> 228,8	<i>Ulushi % da</i> 13,4	<i>O'sishi % da</i> 110,9		<i>Mlrd. so'm</i> 52,0	<i>Ulushi % da</i> 3,1	<i>O'sishi % da</i> 63,9
Sharof Rashidov				Forish			
	<i>Mlrd. so'm</i> 67,9	<i>Ulushi % da</i> 4,0	<i>O'sishi % da</i> 63,2		<i>Mlrd. so'm</i> 74,7	<i>Ulushi % da</i> 4,4	<i>O'sishi % da</i> 235,5
Do'stlik				Yangiobod			

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1241,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 22,3 % ni tashkil etdi.

Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida

	Mrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da		Mrd. soʻm	Ulushi % da	Oʻsishi % da
Jizzax viloyati				Zomin			
	5560,0	100,0	107,1		298,4	5,4	102,4
Jizzax shahar				Zarbdor			
	2262,2	40,7	102,9		193,7	3,4	104,6
Arnasoy				Zafarobod			
	191,1	3,4	102,9		320,1	5,8	114,9
Baxmal				Mirzachoʻl			
	85,7	1,5	106,6		142,9	2,6	104,8
Gʻallaorol				Paxtakor			
	163,5	2,9	107,8		470,0	8,5	113,7
Sharof Rashidov				Forish			
	383,3	6,9	109,7		200,8	3,6	103,7
Doʻstlik				Yangiobod			
	748,6	13,5	112,3		99,7	1,8	105,1

**Jizzax viloyati shahar va tumanlar kesimida ishlab
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**



Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining oshganini, Zafarobod (2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 114,9 %), Paxtakor (113,7 %), Do'stlik (112,3 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshganligi bilan izohlashimiz mumkin.



Jizzax viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Jizzax shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 40,7 % i) hamda Do'stlik (13,5 %), Paxtakor (8,5 %) va Sharof Rashidov (6,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.






Eng past ko'rsatkich esa Baxmal (1,5 %) hamda Yangiobod (1,8 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri (12631,4 ming so'm), Do'stlik (11348,6 ming so'm), Zafarobod (6385,2 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1856,1 ming so'm bo'lgan bo'lsa, Jizzax shahrida 4838,2 ming so'mni, Do'stlik tumanida 3572,3 ming so'mni, Yangiobod tumanida 3513,2 ming so'mni, Zomin tumanida 1358,2 ming so'mni, Zafarobod tumanida 3862,7 ming so'mni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, ming. so'm

	Sanoat mahsulotlari 3981,9	Iste'mol mahsulotlari 1856,1		Sanoat mahsulotlari 1806,2	Iste'mol mahsulotlari 1358,2
Jizzax viloyati			Zomin		
	Sanoat mahsulotlari 12631,4	Iste'mol mahsulotlari 4838,2		Sanoat mahsulotlari 2225,5	Iste'mol mahsulotlari 1297,9
Jizzax shahar			Zarbdor		
	Sanoat mahsulotlari 4135,5	Iste'mol mahsulotlari 2196,9		Sanoat mahsulotlari 6385,2	Iste'mol mahsulotlari 3862,7
Arnasoy			Zafarobod		
	Sanoat mahsulotlari 543,9	Iste'mol mahsulotlari 543,9		Sanoat mahsulotlari 2738,4	Iste'mol mahsulotlari 1436,5
Baxmal			Mirzacho'l		
	Sanoat mahsulotlari 944,2	Iste'mol mahsulotlari 659,4		Sanoat mahsulotlari 6265,6	Iste'mol mahsulotlari 1676,6
G'allaorol			Paxtakor		
	Sanoat mahsulotlari 1716,9	Iste'mol mahsulotlari 1195,3		Sanoat mahsulotlari 2156,9	Iste'mol mahsulotlari 967,3
Sharof Rashidov			Forish		
	Sanoat mahsulotlari 11348,6	Iste'mol mahsulotlari 3572,3		Sanoat mahsulotlari 3519,5	Iste'mol mahsulotlari 3513,2
Do'stlik			Yangiobod		

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

(2020- yil yanvar-dekabr oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3571,7 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 64,2 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Baxmal tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Sharof Rashidov (100,0 %), Zomin (100,0 %), Zafarobod (100,0 %) hamda Mirzacho'l (97,2 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Paxtakor (41,5 %), Do'stlik (50,5 %) tumanlarida hamda Jizzax shahrida (49,3 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2021- yil 1-yanvar holatiga)

Bugungi kunda viloyatda 3473 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 093 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 31,5 %) Jizzax shahriga, Sharof Rashidov tumaniga 688 tasi (19,8 %), G'allaorol tumaniga 343 tasi (9,8 %), Zomin tumaniga 269 tasi (7,7 %), Forish tumaniga 157 tasi (4,5 %), Zarbdor tumaniga 157 tasi (4,5 %) to'g'ri kelmoqda.



2020- yil yanvar-dekabr oyida viloyatda 821 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 188 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 22,9 %) Jizzax shahrida, 105 tasi (12,8 %) Sharof Rashidov tumanida, 114 tasi (13,9 %) G'allaorol tumanida hamda 52 tasi (6,3 %) Do'stlik tumanida tashkil etildi.



**2020- yil yanvar-dekabr oylarida tayyor
mahsulotlar, butlovchi buyumlarva materiallar
ishlab chiqarish**

RAQAMLAR:

- Mahalliyashtirish dasturidagi loyihalar soni **52 ta**
- Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **788,8** mlrd. so‘m.
- Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eksport hajmi **11,4 mln.** AQSH dollar

2020 - yil yanvar-dekabr oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi materiallarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi doirasida 52 ta loyiha bo‘yicha 788,8 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo‘lib, 11,4 mln. AQSH dollarlik mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi va 1133 ta yangi ish o‘rni yaratildi.


Ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi (mlrd. so‘mda)

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida mahalliyashtirish dasturi bo‘yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 788,8 mlrd. so‘mni tashkil qildi. 2019- yilning tegishli davri bilan solishtirganda 170,8 % ni tashkil etdi. O‘z navbatida mazkur 2019-2020- yillarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni hajmini ko‘rishimiz mumkin.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi bo'yicha 52 ta loyiha (788,8 mlrd. so'mlik mahsulot) amalga oshirilgan bo'lib, Jizzax shahrida 26 ta (523,7 mlrd. so'm), Zafarobod tumanida 1 ta (131,9 mlrd. so'm), Zarbdor tumanida 3 ta (51,8 mlrd. so'm), Forish tumanida 3 ta (37,9 mlrd. so'm), korxonalariga to'g'ri keladi.




Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eksporti ham 2020-yilning tegishli davri bilan solishtirganda 11307,4 ming. AQSH dollar o‘shishi kuzatildi. O‘z navbatida, eksportning eng ko‘proq qismi Zarbdor tumani (5816,0 ming. AQSH dollar) ekanligini ko‘rishimiz mumkin..





2020- yil yanvar- dekabr oylarida mahalliyashtirish dasturi doirasida hududlar kesimida amalga oshirilgan korxonalar soni, birlikda

Shu bilan birga o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 1133 ta yangi ish o'rini yaratildi.



Sanoat statistikasi bo'limi

Tel.: (72-221-51-13)